

Ona bag'rida



14:00 / 03.10.2021 1896

Musoning mehribon onasi Musoning singlisiga dedi:

- Qizim, bor, ukangni qidir, shoyad u tirik bo'lsa. Alloh taolo uni saqlashni va sog'-omon qaytarishni menga va'da qilgandi.

Musoning opasi ukasini daraklab ketdi. Atrofdagilar shoh qasridagi chiroyli go'dak haqida gaplashishardi. Qiz saroy ayollarini suhbatlariga quloq tutdi:

- Malika so'ratgan bolaga emizuvchi Asvon shahridan keldimi?

- Ha bekachim, lekin bola uni ham emmayotgan emish.

- Yo Alloh! Bu bola nega hech bir ayolni emmaydi-ya? Endi adashmasam shu malika chaqirtirgan oltinchi ayol edi-ya?

- Ha, aytishlaricha u judayam pokiza ayol ekan. Hamma go'dagiga uni enaga qilardi. Shunda Musoning opasi ushbu so'zlarga quloq tutib, odob bilan suhbatga qo'shildi.

- Men shahardagi bir ayolni bilaman. Go'dak albatta uni emishi kerak.

- Yo'q, men bunga ishonmayman,- dedi saroy bekachi, - biz oltita ayolni olib keldik, lekin bola birontasini ham emmadi. Saroyda xizmat qiladigan ayollardan biri aytdi:

- Kelinglar, yettinchisini ham sinab ko'raylik, bizdan nima ketdi? Bu gap malikaning qulog'iga yetdi. U joriyani chaqirib dedi:

- «Bor va o'zing bilan o'sha ayolni olib kel»!

Musoning onasi qasrga keldi. Kanizaklar Musoni keltirishdi. Bola ayolning quchog'iga talpinib uni ema boshladi. Go'yoki bular va'dalashib olgandek. Axir nima uchun ham uni emmasin?! Bu ayol uning mehribon onasi-ku! Nima uchun ham uni emmasin?! Muso uch kundan buyon och edi-ku. Malik ajablandi. Butun saroy ahli ham ajablandi. Fir'avn ichiga shubha kirdi:

- Nega bola bu ayolni emishga talpindi. Nima, u onasimi?! Musoning onasi javob berdi:

- Podshohim, men hushbo'y hidlik, shirin sutlik ayolman. Hech qaysi go'dak mendan yotsiramagan. Fir'avn jim bo'ldi. Musoning onasiga podsholikdan nafaqa tayin qilindi. Musoning onasi farzandini bag'riga bosib uyiga qaytdi.

«Shunday qilib, biz (Musoning onasi) ko'zlari shodlanishi va g'am chekmasligi uchun hamda Allohning va'dasi haq ekanini bilishi uchun uni onasiga qaytardik. Lekin ko'p (odamlar Allohning va'dasi haq ekanini) bilmaydilar».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad